

SANOAT TARMOQLARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION INSTITUTLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING IQTISODIY NATIJALARGA TA'SIRI

Nabiyev G'ulom Abdisalomovich

Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisdá sanoat tarmoqlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili sifatida innovatsion institutlarning shakllanishi va faoliyat yo'nalishlari tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot markazlari, sanoat klasterlari va texnoparklar kabi institutlar innovatsion muhitni rivojlantirishga, korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlashga hamda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari innovatsion institutlar faoliyatini kuchaytirish orqali iqtisodiy natijalarning yuqori darajaga ko'tarilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Innovatsion institutlar, sanoat samaradorligi, raqamli transformatsiya, texnopark, klasterlash, innovatsion infratuzilma, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi innovatsiyalarni keng qo'llash bilan chambarchas bog'liq. Mavjud raqobat sharoitida korxonalar faqat samarali boshqaruv, texnologik yangilanish va ilmiy yondashuv orqali barqaror natijalarga erishishi mumkin. Shu bois innovatsion institutlar tizimini shakllantirish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda innovatsion institutlarning shakllanishi hamda ularning sanoat sektoridagi iqtisodiy natijalariga ta'siri yoritiladi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish resurslaridan foydalana olish samaradorligi kabi masalalar muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy rivojlanish hozirgi davrda yangi bosqichga ko'tarilib, yangi tizimni yaratdi. Bu esa o'z navbatida mintaqada chuqur ilmiy izlanishlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish kabi vazifalarni belgilab berdi. Buning natijasida rivojlanishdagi asosiy omil - bu ilmiy tadqiqat ishlari, fan va ta'lim. Undan tashqari, shuningdek, ushbu tizimning asosiy jihati va samarasi bu yuqori texnika, raqamli va nanotexnologiya, mikrochiplar, suniy intellektlardir.

Asosiy qism. Mintaqa sanoat tuzilmalarini takomillashtirishda korxonalar, davlat organlari va boshqa turdagi ishlab chiqarish obektlari faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar bilan kirib borilmoqda hamda joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek keyingi jarayonda raqamli bozor vujudga keladi. Bu zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilarni onlayn bog'lash imkoniyatini yaratadi.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida bilim va axborot mahsulot ham, ishlab chiqarish vositasi hamdir. “Ilm va ta’lim, deydi B.Л.ИНОЗЕМЦЕВ, - to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi, ularning tashuvchilari esa jamiyatda mavjud bo‘lgan eng yuqori kuchlardir. Ta’lim va intellektual kapital bilan bog‘liq munosabatlar inson qadr-qimmatining shubhasiz asl ko‘rinishidir”. Bu esa jamiyatni rivojlanishida muhim qadamlardan biri bo‘lib qolmoqda. M.B.Chensova fikriga ko‘ra bilimlarga asoslangan iqtisodiyot o‘z ichiga to‘rtta iqtisodiyotni jamlaydi:

- postindustrial iqtisodiyot. Bilimlar iqtisodiyotida postindustrial iqtisodiyotga xos xizmatlar sohasi ustunlik qiladi;

- axborotlar iqtisodiyoti. Bilimlar iqtisodiyoti axborotsiz ishlay olmaydi, u asosiy rolni egallaydi;


Ilmiy-texnik va axborot taraqqiyotining keyingi rivojlanishida hayot tezligi yanada oshadi, ya’ni ular o‘rtasidagi munosabatlar (internet rivojlanishi sababli) qisqaradi, kasblarning o‘zgarishi odatiy holga aylanadi, mahsulotlarning hayotiylik sikli qisqaradi, bir martalik ishlatidigan tovarlar ko‘payadi, xizmatlar sohasi yetakchilik qiladi deb hisoblagan.

O‘zbekiston ham jahon mamlakatlari bilan baravar qadam bosishni maqsad qilgan ekan, bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirmasdan bunga erishishning iloji yo‘q. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev: “Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur... Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi” deb ta’kidlagan.

Xasanxonova N. I. O‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishining shart-sharoitlarini ko‘rsatib bergan.

Shuning uchun ham mintaqaviy iqtisodiyot rivoj topishida sanoat tuzilmalarini o‘rni juda katta hisoblanadi. Shunday ekan zamonaviy yondashuvlar asosida zaruriy choralardan biri institsional bilimlarni nazariy-amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Mintaqamizda sanoat tuzilmasini keng doirada baholash, tarkibiy tuzilmalarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini tahlillarini olib borish bilan mahalliy olimlar ham o‘z ilmiy izlanishlarini olib bormoqdalar. Shulardan, Respublikamizdagi neft-gaz sanoatini barqarorlashtirish, ulardagi institutsional o‘zgarishlarni baholash va yangidan yangi yo‘nalishlarni izlab topish maqsadga muvofiq.





2.3.2- rasm. Yangi institutsional iqtisodiyot tarmoqlari

Mintaqa sanoati institutsional tuzilmasiga binoan quyidagi jihatlarni aniqlash mumkin bo'ladi:

- Sanoat tarmoqlarida mehnat taqsimotining ijtimoiy darajalarini;
- Mintaqa sanoatining iqtisodiy ekanligini;
- Mintaqa sanoatni ilmiy-texnika salohiyatini;
- Mintaqa sanoatining rivojlanish darajasini;
- Mintaqa sanoatini ijtimoiy mehnat unumdorligi;

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak nazariy-amaliy, konseptual va fan texnika tarqqiyotini boshqarish bo'yicha bir qancha jarayonlarga bog'liqdir. Birinchidan, iqtisodiy rivojlanishning ilmiy-texnikaviy jihatlarni o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va iqtisodiyot tomonidan talab qilinmoqda.

Mintaqa sanoati institutsional tuzilmasini rivojlantirish, innovatsion rivojlanish va modernizatsiya modellarini, shuningdek, usul va vositalarni tanlash, ilmiy va texnologik inqilobni boshqarish tizimlariga bog'liq.

Uchinchidan, iqtisodiy o'zgarishlarning jadal sur'atlari bir qator nazariy qoidalarining amaliyotga tatbiq etilishiga olib keldi.

Bozor tushunchalari ko'pincha mutlaq darajaga ko'tarildi, shu bilan birga nazariy modellarning ma'lum bir konvensiyasini, ularning muayyan sharoitlardan abstraksiyasini, moslashuvchan cheklovlarni hisobga olmagan holda, sanoat korxonalari ishining amaliy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

To'rtinchidan, jahon iqtisodiyotining rivojlanish dinamikasi ko'rsatgan va ko'plab olimlarning tadqiqotlarida qayd etilganidek, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish nafaqat raqobatbardoshlikni mustahkamlash, balki hal qiluvchi omil hisoblanadi. Jamiyatning

yashashi, iqtisodiy va siyosiy barqarorligi uchun shart. Ilmiy-texnika taraqqiyotini boshqarishning zamonaviy konsepsiyalarining nazariy asosi iqtisodiy fikr merosi - ilmiy qarashlar va qoidalar, g'oyalar va paradigmalarga asoslanadi. Turli tarixiy davrlarda, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan iqtisodiy tizimlarda boshqaruvning o'rni va mohiyatini tadqiq etish va tushunish lozim bo'ladi.

Bu qarashlarni birlashtiruvchi komponent deyarli hamma tomonidan tan olingan ilmiy-texnika taraqqiyotining ahamiyati va uning ta'siridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Q.X., Xolmatov A. "Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
2. Zokirova B.X. "Sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishda investitsion omillarning roli". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
3. Porter M. "Competitive Advantage of Nations". – London: Macmillan, 1990.
4. Perroux F. "Economic Growth and Regional Development Theory". – New York, 1987.
5. Marshall A. "Principles of Economics". – London: Palgrave Macmillan, 2013.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari: www.stat.uz (2020–2025 yillar).
7. UNIDO. "Industrial Development Report: Structural Change and Regional Industrialization". – Vienna, 2023.
8. Jahon banki. "Uzbekistan Development Update: Industrial Growth Outlook". – Washington, 2024.
9. OECD. "Economic Survey of Uzbekistan: Regional Development Priorities". – Paris, 2022.
10. Xusanov O. "Sanoatni diversifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari". – Toshkent: Iqtisod sirlari, 2023.